

TILNING KELIB CHIQISH TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Abdiyeva Marjona Ravshan qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

abdiyeva.marjona07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning kelib chiqish tarixi haqida soʻz boradi, keltirilgan farazlar atroflicha oʻrganiladi va tahlil qilinadi. Til murakkab ijtimoiy hodisa sanaladi. Uning kelib chiqishi boʻyicha turli xil qarashlar mavjud. Maqolada tilning rivojlanish bosqichlari, uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati koʻrib chiqiladi, shuningdek uning fan sifatida shakllanishidagi muammo va sabablar ham yoritiladi.

Kalit soʻzlar: antropologik, naturalizm, strukturalizm, analogistlar, anomalistlar, psixologik, ibtidoiy jamoa, materialistik tilshunoslik.

Kirish: Bugungi globallashib borayotgan zamonda tilga boʻlgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu jihatdan uning qanday kelib chiqqanligi, ushbu tushuncha ostida qanday farazlar mavjud ekanligi ushbu sohani oʻrganmoqchi boʻlgan yoshlarning qiziqishini oʻrtirishi tabiiy.

Maʼlumki, tilning qanday qachon va qay tarzda paydo boʻlganligi toʻgʻrisida aniq ilmiy asoslangan javoblar mavjud emas, ammo baʼzi bir olimlarning farazlariga koʻra, til besh yuz ming yil ilgari paydo boʻlgan. Hamda til murakkab nutqiy aloqa vositasi. U jamiyat oʻrtasidagi muloqotni taʼminlaydi. Tilning qancha hodisa ekanligiga esa hali-hanuz aniq javob yoʻq. Ushbu munozara boʻyicha turli xil farazlar mavjud. Jumladan:

Til - tabiiy (biologik) hodisa

Til - ruhiy hodisa

Til - ijtimoiy hodisa.

Masalan, antik davr olimlaridan Avgust Shleyxer tilning tabiiy hodisa ekanligini hamda u xuddi tirik organizm kabi ekanligini taʼkidlaydi va naturalizmning shakllanishiga hissa qoʻshadi. Tilning tabiiy hodisa ekanligini isbotlash uchun olimlar quyidagi nazariyani keltirishgan. Ularning fikricha, inson tugʻilgandan soʻng til ham tugʻiladi yaʼni shakllanadi va uning umri davomida rivojlanadi va vafot etgach, u bilan birga oʻladi. Dalil sifatida maʼlum yosh (bir yoki bir yarim) ga toʻlgan bola gapira boshlashini taʼkidlashgan. Ammo strukturalizm tarafdori boʻlgan Ferdinand de Sossyur "til - ijtimoiy hodisa" deya oʻz fikrini himoya qilgan. Aslini olib qaralganda, tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqiqatga yaqin. Negaki til jamiyat bilan shakllanadi va jamiyat orqali rivojlanadi. Agarda oʻzbek oilasida tugʻilgan farzand tili, madaniyati va fikrlashi oʻzga boʻlgan millat tomonidan voyaga yetkazilsa, ushbu farzand boshqa millatning tilida gapira boshlaydi, madaniyatini anʼana sifatida qabul qiladi. Bundan kelib chiqadiki, til tabiiy hodisa boʻlmay, kelib jihatdan murakkab, koʻp qirrali ijtimoiy hodisadir.

Qolaversa, Materialistik tilshunoslik til tabiiy hodisa ekanligini rad etish barobarida tilning paydo bo'lishi va shakllanishi insoniyat jamiyati bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlagan. "F. Engels o'zining mashhur "Maymunning odamga aylanishida mehnatning roli" asari orqali tilning kelib chiqishida asosiy e'tiborni kishining ijtimoiy mehnatiga qaratadi. Materialistik ta'limotga ko'ra jamiyat a'zolari mahsulot ishlab chiqarar va uni ayirboshlash ekanlar, o'zaro ishlab chiqarish munosabatiga kirishadilar. Bu munosabat tufayli kishilar orasida aloqa zaruriyati tug'iladi. Bunday muammoni faqat odamlar orasida vositachi, fikr almashish quroli bo'lmish til hal qiladi" [M. Irisqulov]. Bundan tashqari, tilning tabiat va voqea-hodisalar bog'liqligi to'g'risida ikki xil qarash vakillari mavjud. Bular:

Anologistlar - narsa, borliq va voqea-hodisalar o'rtasida bog'liqlik borligiga ishonuvchilar. Bu fikrni Platon qo'llab-quvvatlaydi.

Anomalistlar - narsa bilan narsa nomi orasida bog'liqlik yo'q, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari suruvchilar. Bu oqimga grek faylasufi Demokrit ham qo'shiladi.

Hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, narsa va nom orasida bog'liqlik bo'lmagan. Bunday bo'lsa, tillar soni 5000 dam ortib ketmagan bo'lardi. Chunki katta miqdordagi tillarning har biri qandaydir narsa bilan bog'liq tarzda yaratilgan bo'lsa, omonim, sinonim kabi tushunchalarning paydo bo'lishi ushbu farazga g'alizlik tug'dirishi tabiiy.

Tilning paydo bo'lishida yana ko'plab farazlar mavjud:

1. Tovushga taqlid farazi. Ushbu farazga ko'ra ibtidoiy jamoa vakillari turli hayvonlarning ovozlari, baqiriqlari, qushlarning sayrashi, suvning shovullashi kabi tovushlarga taqlid qilishga harakat qilishgan. Keyinchalik bu takliflar so'zlar sifatida shakllangan (chumchuq, sharshara, miyov). Ammo ushbu farazning to'g'rilini inkor qiluvchi omillar ham yetarlicha. Masalan, barcha so'zlar tovushlarga taqlid orqali paydo bo'lgan bo'lsa, ovoz chiqarmaydigan narsalar qanday qilib so'zning shakllanishiga yordam bergan, degan savol tug'iladi. Qolaversa, bir shakldagi so'zning bir necha xil ma'noni anglatishi ham bu farazni inkor etadi.

2. Undovlar farazi. Tilning paydo bo'lishiga doir ikkinchi keng tarqalgan fikr undovlar farazi sanaladi. Ushbu faraz qadimiy qarashlardan sanalib, uning ham asosini hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlari tashkil etadi. Hayvonlar turli xil ovozlar chiqarish natijasida bu insonlarning ham nutqiga ko'chgan hamda oh, uh kabi tovushlar qo'shilishi orqali so'zlar paydo bo'lgan. Bunday so'zlar barcha tillarda mavjud bo'lib, rus tilida "oxat, uxat", o'zbek tilida esa "uflamoq, dodlamoq" kabi. Taniqli fransuz olimi Jan Jak Russo ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaydi.

3. Mehnat chaqiriqlari farazi. Ushbu nazariya asoschilarining fikricha, til insonlar jamoa-jamoa bo'lib mehnat qilish natijasida chiqarilgan ovozlar talqinida shakllangan. Bu fikrni XIX asrning 70-yillarida fransuz faylasufi L. Nuare yaratgan. Uning qayd etishicha, til ixtiyorsiz qayqiriqlardan tashkil topgan. Nemis olimi Karl Byuxer ham ushbu nazariyani yoqlaydi. Ushbu faraz bir tomondan haqiqatga yaqin ko'rinsada, mantiq

jihtadan anchagina yiroq.Chunki mehnat jarayonida paydo bo'ladigan oh, uh,voh,viq kabi tovushlar faqatgina kishilarni bir jamoada ishlashlarini ta'minlash uchun xizmat qilgan xolos.Ularning aloqa vositasi sifatida foydalanganligi ehtimoldan yiroq.

4.Ijtimoiy kelishuv farazi.Ushbu nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan bo'lib,uni yoqlovchi olimlarning fikrlari ba'zida bir-biriga zid bo'lgan,ammo ularning tilning kelib chiqishi to'g'risidagi fikrlari bir xil.Qisqa qilib aytganda,ibtidoiy davrda insonlar narsalarga qanday nom berishni o'zaro maslahatlashib kelishib olishgan,Ma'lumki,biror narsani jamoaviy maslahatlashish uchun aloqa vositasi - til zarur.Shu sababli ushbu nazariyani tilning kelib chiqishi haqida emas,uning rivojlanish yo'nalishlari haqida ekanligi maqsadga muvofiq.Bugungi kunga kelib,ma'lum bir soha vakillari qandaydir fanga doir atamalarni kelib olishadi,ammo buning tilga aloqasi yo'q.

Xulosa: Yuqorida ta'kidlangan fikrlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'linsa,til murakkab ijtimoiy hodisa.Chunki tilning tabiiy yoki ruhiy hodisa ekanligini hozirgi zamon hodisalari inkor etadi.Sababi til tabiiy hodisa sifatida inson bilan birga tug'ilmaydi yoki avloddan avlodga o'tmaydi.Ota-onadan farzandga antropologik,psixologik omillar o'tishi mumkin,ammo tilning o'tishi amrimahol.Negaki turk oilasida tug'ilgan farzand o'zbek millati tomonidan tarbiyalansa ham turk tilida gapirmaydi.Shuning uchun tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqiqatga ancha yaqin.Qolaversa,tilning yaratilishida narsa va nomlar o'rtasida bog'liqlik deyarli mavjud emas,masalan,kitob so'zi qandaydir so'zga bog'liq ravishda shakllanmagan.Xullas,til jamiyat orqali paydo bo'lgan,u orqali shakllanadi hamda u orqali rivojlanib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Z.Xolmanova,"Tilshunoslikka kirish",Toshkent - 2007.
- 2.O'lmas Sharipova,Ibrohim Yo'ldoshev,"Tilshunoslik asoslari", Toshkent - 2006.
- 3.M.Irisqulov,"Tilshunoslikka kirish","O'qituvchi" - 1992
- 4.M.Rustamov,"Tilshunoslik fanining mazmuni,predmeti va metodi.Til - asosiy aloqa vositasi" nomli ma'ruza.